

## O`ZBEK ADABIYOTIDA AYOLLAR TIMSOLI

**Xidirov Samandar Sanjarbek o`g`li**

*TerDU Pedagogika va psixologiya 3-bosqich talabasi*

**Suyunova Dildora Halim qizi**

*TerDU Amaliy psixologiya 2-bosqich talabasi*

**Ergasheva Obod Norkulovna**

*TerDU Pedagogika kafedrası katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola bizning or-nomusimiz, g`ururimiz bo`lgan ayollar haqida. Ayolning naqadar ulug` zot ekanligi, asrlar davomida ayolga ehtirom, hurmat, izzatda bo`lib kelinganligi, ulamolar fikri keltirilgan. Ayol bizning mushtipar onamiz, singlimiz, ayolimiz beshikdagi jajjigina qizchamizdir. Ayolni e`zozlagan yurt rivojlanadi, ravnaq topadi. Kelajagi buyuk farzandlar yetishib chiqadi.*

**Kalit so`zlar:** *Ayol, ona, farzand, or-nomus, To`maris, yurt ravnaqi, pok qalb, Navoiy, tarbiya, hurmat, buyuklik, mehridaryolik, chin muhabbat.*

Qadim-qadim zamonlardan buyon ayollar insonlarni dunyoga kelishiga sabab bo`luvchi zot sifatida e`zozlanib kelingan. Necha asrlar davomida shoirlarning she`r va g`azallarida munis, oqila, mehribon onalar ta`rifu-tavsif etilgan. Ayollar sha`ni yuksaklarga olib chiqilib, qimmatbaho gavhardek asralgan, ular subhidamning ilk quyosh nurlariga qiyoslangan. Ona inson tafakkurining gulshani, fazlu-kamolining mehrobi. Ona uchun o`z farzandlarini tarbiyalashdan, voyaga yetkazishdan buyuk baxt bo`lmasa kerak. Ona quchog`ida Ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg`usini, porloq ko`zlarida quyoshning issiq taftini chuqur his qilamiz. Onaning farzandlari uchun qilgan xizmatini hech narsa bilan o`lchab ham, baholab ham bo`lmaydi. Buyuklik nima? Jahonda nimaiki oq bo`lsa, unga ona suti timsol, nimaiki jo`shqin va qaynoq bo`lsa unga ham ona mehri timsol, nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo`lsa, ona irodasi timsol, kimda-kim pok muhabbat va mehridaryolik da`vat etsa, onaning pok qalbi timsol. Mana buyuklik nimada. Shu sababdan jahonga mashhur barcha ulug` siymolar ota-onani chuqur sevganlar, ularga hamma vaqt mehribonlik ko`rsatganlar. Onalarni tarannum etuvchi asarlar son-sanoqsiz, ularning har biri o`ziga xos tarzda tasvirlaydi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida Ona-Ayol siymosi qay tariqa aks ettirilgan? Uning dunyoqarashidagi tushunchalar ayollik latofatini qanday tushuntiradi? Xotin-qizlar tarixi umumbashariyat tarixining eng katta va yorqin ko`zgidir. Chunki, xotin-qizlarning erkinligi, moddiy va ma`naviy ahvoli doimo jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan bog`liqdir. Insoniyat tarixida paydo bo`lgan ziddiyatli jamiyatda ayollar ruhan ezilgan va haq-huquqi paymol etilgan mazluma-ozizalar bo`lib kelishdi. Eksploatatsiyaga asoslangan tuzum ayollarimizni xo`rlab kelgan. Ularning ijtimoiy hayot sohalaridagi o`rnini qattiq chegaralagan, erkini paymol etgan. Ana shunday jamiyat vakili bo`lgan Alisher Navoiy doimo ayollarga nisbatan ijodiy munosabatda bo`lgan. Ularning onalik va rafiqalik

haq-huquqini hurmat qilgan, ularning baxt-saodati uchun kurashgan. Jumladan, bir qit'asida aqli raso va odobli xotin-qizlarni yaramas erkaklardan afzal bilib aytgan edi. Xotin-qizlarni inson, ona va rafiqa sifatida ardoqlab ulg'aygan shoir ularni quyosh-shamsiga o'xshatadi. Navoiyning xotin-qizlar haqidagi o'y va fikrlari, orzu va tilaklari bir tomondan, muayyan muhitning zamirida tug'ilgan hayotiy voqeyilik bilan chatishib ketgan. Alisher Navoiy Ona-ayol timsolini butun mehri bilan tasvirlaydi va buning uddasidan chiqish sharafiga muyassar bo'ladi. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandarning onasi timsoli o'zgacha alohida o'rin tutadi. U Iskandar faoliyatining tasvirida ko'zga tashlanmaydi. Bu timsolda Navoiyning hayot to'g'risidagi qarashlari ayol timsolida Navoiyning hayot to'risidagi qarashlari o'z aksini topgan. Bu timsollar Navoiyning hayot va o'lim, turmush va odamlar to'g'risidagi umumlashma fikrlarning ifodasi uchun bir vosita bo'lib xizmat qilgan. Navoiy Iskandarning onasiga murojaati orqali yana bir bor onalarni va onalikni ulug'laydi, eng yuksak, eng mo'tabar zot ekanligini, uning qarshisida barcha daraja, mavqe va amallar tuban va nomutanosib ekanligini hayajonli misralarda aniq ko'rsatadi. Butun dunyoni egallagan hukmdor maktubida fikrlarini aniq bayon etadi. Alisher Navoiy onalarni ulug'laydi, ijodi davomida mehr bilan tasvirlaydi. U ayollar timsolini shunchaki tasvirlab qolgani yo'q, balki o'zidan oldin o'tgan allomalarning ijodidagi timsollarni asos qilib oladi. Bu timsollarga yangicha mazmun bag'ishlaydi. Bu timsollar orqali umuminsoniy tuyg'ularni kishilar qalbiga olib kiradi. Ona timsolini benihoya ulug'laydi. Onani eng yuksak, eng mo'tabar zot ekanligini hayojonli misralarda ko'rsatganki, biz buni yuqorida shohidi bo'ldik. Alisher Navoiy har bir ona-ayol timsoliga murojaat qilar ekan zamonasining dolzarb, muhim muammolarini ko'tarib chiqadi. Ayni zamonda ayollarga xos sevgi va vafo bobiga yangi-yangi sahifalar olib kiradi. Navoiy asarlaridagi sevgi va vafo timsolining namunasi sifatida Laylini keltirish mumkin. Layli –tashqi qiyofasi bilan ham, ma'naviy dunyosi va xulq-atvori bilan ham nihoyatda go'zal qiz. Tashqi go'zalligi bilan maftun etuvchi bu go'zal qizning Navoiy shunday so'zlar ila tasavvurimizga muhrlaydilarkim, biz sharqona tarbiya topgan qizni bundan boshqacha tasavvur eta olmaymiz. Xullas, Alisher Navoiy yaratgan barcha timsollar o'zining go'zalligi va yorqinligi bilan kishilar qalbini zabt etib kelmoqda desak yanglish bo'lmaydi. Onani ulug'lash asrlar osha avloddan avlodga o'tib kelayotgan Sharqona udumlarga xos oliyjanob an'analardan biridir. Chunki odamlardagi vijdon va or-nomus onasining qadr-qimmatini tushunishdan boshlanadi. Inson bo'lishning alifbosi shu. Onani hurmatlash insonparvarlikning tarkibiy qismi bo'lib, u har bir musulmonning muqaddas burchidir. Ona-To'maris dushmanni dog'da qoldirgan, ona-Niginabegim Amir Temurni dunyoga kelishiga sabab bo'lgan, ona- Mohlaroyim Umarxonning zavjai-haloli, she'riyat gulshanining guli, ona-Moximdir Bobur dilidagi Vatan sog'inchi yaralariga malham bo'la olgan, Mumtozmalakbegim Shohjahonga sadoqat ko'rsatgan. Ha, butun jamiyat taraqqiyoti ona-ayol hamda uning jamiyatdagi o'rnini bilan belgilanadi. Ayol-onaning timsoli adabiyotda shunday bir mavqe'da bo'lishi kerakki, to uning tasviri kitobxonda hech bir shubha uyg'otmasin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.Baxtiyor oila-Toshkent:"Hilol-Nashr",2013.-504s.
2. Nishanova.Z.K, Kamilova.N.G`, Abdullayeva.D.U, Xolnazarova.M.X. Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya.Darslik.-T.: "Avto-nashr",2018.593s
3. Xaydarov.F.I, Xalilova.N.I.Umumiy psixologiya.-T.: "Nizomiy nomidagi TDPU",2010.247s.